KURASH TURLARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI TALABALARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAIDA O‘QITISH METODIKASI

Ergashov Bobirjon Dehqonboyevich - Guliston Davlat pedagogika insituti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b. p.f.b.f.d.(PhD)
bobirjonergashov786@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta’limda taxsil olayotgan bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot komponentligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan ilm-fan va innovatsion texnologiyalar, zamonaviy komponentlikni rivojlantirishning samarali va ilg‘or usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, ko‘nikma, kasbiy salohiyati, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar.

Bugungi kunda dunyo miqyosida bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar tizimining intensiv yangilanish dinamikasiga moslashtirish, innovatsion samarador texnologiyalar asosida takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari doirasida tabiiy-ilmiy savodxonligini orttirish sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj

yanada kuchaydi. Jahonda bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion texnologiyalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, dunyoqarashini rivojlantirish masalalari o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda.

Hozirda mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish masalalariga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda «mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» kabi muhim vazifalar belgilandi. Bugungi kunda bo‘lajak kurash murabbiylari va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sohaga oid fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llashi va takomillashtirish, burabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlash, o‘qitish sifati va samaradorligini ko‘tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon jismoniy tarbiya va sport ta’lim metodikasini bilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, sport maktablari va umumiy o‘rta ta’lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishga, yuqori malakali, mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Tezkorlik bilan rivojlanayotgan davr mutaxassislar oldiga shiddatli o‘zgarishlarga tayyor turish, davr bilan hamnafas bo‘lgan holda ijtimoiy va kasbiy nuqtai nazardan o‘z-o‘zini shakllantirib, bo‘lajak murabbiylar va o‘qituvchilarning zamonaviy axborot kompetentligini rivojlantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bu vazifalarni bakalavriat ta’lim bosqichidan boshlab amalga oshirish lozim. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy yondoshish, asoslash, ilmiy tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish zarur. Biz quyidagi eng muxim vazifalarni amalga oshirish lozim

deb xisoblaymiz

- bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o‘lashtirishi va takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqish va tadqiq qilish,

-bo‘lg‘usi murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar qo‘llashi va rivojlantirish,

- bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini ta’minlaydigan innovatsion pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishga yordam beradigan o‘qitish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish metodikasini o‘quv jarayoniga tatbiq etish kompetentsiyasini egallashi lozim.

Ushbu vazifalarni xal etish uchun quyidagi amalga oshiriladigan tizimli ishlar belgilab olindi:

- pedagogika oliy ta’lim muassasalarining sport faoliyati va jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi uchun “Jismoniy tarbiya darslarda axborot texnologiyalari” maxsus kursining malaka talablari, fan dasturi va ishchi dastur ishlab chiqiladi, ularga asoslanib kursning sillabuslari, o‘quv-uslubiy majmualari, taqdimotlari, qo‘shimcha materiallari takomillashtiriladi, bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun zamonaviy yangi innovatsion texnologiyalarini o‘qitish bo‘yicha taqdimotlar, video darslar va xokazolar ishlab chiqiladi; bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun innovatsion texnologiyalar kursi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va multimedia texnologiyasiga asoslangan (animatsiyali, ovozli) elektron darslik ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda bo‘lajak murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning zamonaviy innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish tizimini to‘liq amalga oshirish orqali sifat va samaradorlikka erishiladi. Murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘z pedagogik faoliyatlarida yangi innovatsion texnologiyalar kompetentsiyalarga ega bo‘ladilar.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ergashov B.D., Kurashni o‘qitish metodikasi (kurash – yangi o‘rganuvchilar uchun) o‘quv qo‘llanma.,“Demal” nashriyoti, Toshkent - 2024 y 76-85 c.
2. TastanovN.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati/ Darslik. Sano standart. Toshkent – 2017.95-b.
3. Ergashov B.D., Малакали курашчиларда куч ва уни турларини ривожланганлик даражасини аниқлаш услубияти. Фан спортга

№ 3.2025, - 28-31 с.
4. Акбаров А., Мусаев Б.Б., Спорт метрологияси, дарслик, Тафаккур қаноти нашриёти, 2014, 424 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sport.
5. Акбаров А., Спортда математик таҳлил усуллари, Чирчиқ, ЎзДЖТСУ, 2020, 228 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda